

25/04/2026

O'zbekiston–AQSh strategik hamkorligini chuqurlashtirish: geoiqtisodiy imkoniyatlar va institutsional islohotlar tahlili



Mansur Omonov (PhD)

Expert, SPAIGI INSTITUTE

1. Kirish. O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so‘nggi yillarda izchil rivojlanib bormoqda. Biroq ushbu munosabatlar ko‘lami mamlakatlar salohiyatiga nisbatan to‘liq shakllanmagan bo‘lib, asosan sektorli va fragmentatsiyalashgan xususiyatga ega. Ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, birgina 2024–yilda ikki tomonlama savdo hajmi 1 mlrd AQSh dollariga yaqinlashib, o‘tgan yilga nisbatan 8% o‘shish qayd etilgan bo‘lsa–da, bu ko‘rsatkich mintaqaviy hamkorlar Xitoy (15 mlrd dollar) va Rossiya (11 mlrd dollar) bilan solishtirilganda juda past darajada qolmoqda.

Bugungi global geoiqtisodiy o‘zgarishlar, Yevroosiyodagi raqobatning ortishi va ta‘minot zanjirlarining qayta shakllanishi hamda strategik resurslar (mineral, energiya) uchun raqobatning kuchayishi AQSh uchun mintaqamizni muhim strategik hududga aylantirmoqda. O‘zbekistonning ham bu jarayonda Middle Corridor, strategik nodir minerallar va raqamli iqtisodiyot salohiyati orqali mintaqada geoiqtisodiy xabga aylanish imkoniyati ortib bormoqda.

2. Mavjud institutsional cheklovlar

Hozirgi hamkorlikda quyidagi hal etilishi zarur bo‘lgan cheklovlar mavjud: institutsional muvofiqlashuvning yetarli emasligi (regulatory mismatch, institutional disintegration, risk perception gap), investitsiya (FDI) mexanizmlari va platformasining to‘laqonli emasligi, yuqori texnologiyalar transferining cheklanganligi, sektorlararo koordinatsiyaning pastligi. Natijada AQSh investitsiyalari umumiy FDI da 5% dan kam ulushni tashkil etmoqda.

3. Geoiqtisodiy imkoniyatlar

Hozirda O‘zbekiston quyidagi strategik funksiyalarni bajarish salohiyatiga ega:

- Markaziy Osiyo logistika xabi (Middle Corridor orqali Yevropa–Osiyo bog‘lanishi)
- Nodir minerallar bazasi (oltin bo‘yicha TOP–10, mis va uran resurslari va boshqalar)
- Industriallashuv platformasi
- Raqamli iqtisodiyot va IT eksport markazi (2024–yilda 1 mlrd dollar IT eksport)

Shu bilan birga, global supply chain qayta shakllanishi AQSh uchun diversifikatsiya imkoniyatini kengaytirmoqda.

4. Geosiyosiy jihatlar: mintaqa va Afg‘oniston omili

Afg‘oniston O‘zbekiston–AQSh hamkorligida muhim geostrategik bo‘g‘in hisoblanadi. O‘zbekiston uchun bu:

- Janubiy Osiyo bozorlariga eng qisqa tranzit yo‘li
- Middle Corridor kengaytmasi
- Energiya va savdo integratsiyasi imkoniyati

Transport koridorlari (Trans–Afg‘on temir yo‘li, Termiz–Mozori Sharif yo‘nalishi) va CASA–1000 asosiy ustuvor loyihalardir.

AQSh uchun esa:

- Mintaqaviy xavfsizlikni boshqarish
- Terrorizmga qarshi strategiya
- Yevroosiyo bozorlariga kirish
- Indo–Pacific strategiyasini kengaytirish
- Xitoy va Rossiyaga nisbatan muvozanat

O‘zbekiston va AQSh manfaatlari o‘rtasida strategik uyg‘unlik mavjud bo‘lib, “economic connectivity through stabilization” yondashuvi bilan O‘zbekistonning pragmatik Afg‘oniston siyosati mos keladi.

5. O‘zaro strategik manfaatlar uyg‘unligi

O‘zbekiston manfaatlari:

- Yuqori texnologiyalar transferi
- Raqamli iqtisodiyot va AI infratuzilmasi
- Eksport diversifikatsiyasi
- Sifatli investitsiyalarni jalb qilish

AQSh manfaatlari:

- Nodir minerallar xavfsizligi
- Supply chain diversifikatsiyasi

- Yevroosiyo transport tizimiga kirish
- Yangi bozorlar

6. Ustuvor strategik yoʻnalishlar

1. Nodir minerallar va qayta ishlash zanjiri — xomashyodan qayta ishlashga oʻtish
2. Yashil energetika — quyosh, shamol, green hydrogen
3. Raqamli iqtisodiyot va AI — GovTech, data governance, kiberxavfsizlik
4. Transport va logistika (Middle Corridor) — multimodal tizimlar, raqamli bojxona

7. Institutsional yechimlar

- Strategic Investment Platform (U.S.–Uzbekistan Business Council, DFC, EXIM Bank)
- Critical Minerals Partnership
- Digital & AI Cooperation Framework
- Green Energy Corridor Initiative
- SIP (Strategic Industrial Policy)

8. Implemetatsiya yoʻl xaritasi (12–24 oy)

I bosqich (0–6 oy): institutsional asos

- Siyosiy va iqtisodiy muloqotni institutsionallashtirish
- Ustuvor yoʻnalishlarni belgilash

II bosqich (6–12 oy): amaliy mexanizmlar

- Strategic Investment Platform ishga tushirish
- Pilot loyihalar (energetika, AI, minerallar)

III bosqich (12–24 oy): kengayish va kengaytirish

- PPP loyihalari va supply chain integratsiyasi
- Eksport klasterlari

Xulosa, Oʻzbekiston–AQSh strategik hamkorligi muhim transformatsion bosqich arafasida turibdi. Global geoiqtisodiy oʻzgarishlar sharoitida

manfaatlar yuqori darajada uyg'unlashmoqda. Ushbu hamkorlik samarali institutsional mexanizmlar asosida rivojlansa, O'zbekistonni global qiymat zanjirlarida yuqori pog'onaga olib chiqadi, yuqori texnologiyali iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi va Markaziy Osiyoda geoiqtisodiy xab sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi.